



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH VA MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV

Eshchanova G.O.

Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti

Jumaniyozova N.F.

Urganch davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Tayanch so‘zlar: zamonaviy ta‘lim, interfaol metod, “Tarmoqlar” usuli, “Uch bo‘g‘inli so‘z” metodi, ”BBB” jadvali, ”Debat”, ”Tarixiy xotira”, “Jamoalarning inshosi”, Xorazmshoh, Jayhun, Chingizxon, Eron, Parvona, Kurdistan.

Ключевые слова: современное образование, интерактивный метод, метод «Сетей», метод «трехсложного слова», таблица «BBB», «Дискуссия», «Историческая память», «Общественное эссе», Хорезмшах, Джайхун, Чингисхан, Иран, Парвона, Курдистан.

Key words: modern education, interactive method, «Networks» method, «three-syllable word» method, «BBB» table, «Discussion», «Historical memory», «Public essay», Khorezmshah, Jaihun, Chingizkhan, Iran, Parvona, Kurdistan.

Bugungi kunda ta‘lim tizimi oldiga inson shaxsini maqsadli rivojlantirishga qaratilgan talablar qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning: “Farzandlarimizning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga bolalikdan e‘tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko‘plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar yetishib chiqadi” [1.] -deya ta‘kidlaganlari bejiz emas. Zero, mamlakatimizda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan barcha tadbirlar, qabul qilinayotgan hujjatlardan ko‘zlangan asosiy maqsad yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga qaratilgan. Bu vazifani amalga oshirishda ziyolilar, xususan, umumta‘lim maktablari o‘qituvchilari yetakchilik qilib, ular zamon talablari doirasidagi ta‘limni tashkil qilishlari talab etiladi.

Zamonaviy ta‘limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o‘qituvchilarga yetkazib berish, ularda ma‘lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, ular



tomonidan egallangan bilim, malaka va ko'nikmakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni hamda yangicha yondashuvni talab etadi.

Ma'lumki, interfaol ta'lim (lot. "internus" - ichki, o'zaro) – o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka, muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim hisoblanadi. Interfaol metodlarning mohiyatidan xabardor bo'lishda, eng avvalo, tayanch tushuncha - "interfaol" atamasining lug'aviy ma'nosi bilan tanishish maqsadga muvofiqdir. Lug'aviy jihatdan "interfaol" (ing. "interact"; r. "interaktiv"; "inter" – o'zaro, birgalikda, "act" - harakat qilmoq, ish ko'rmoq) tushunchasi "o'zaro, birgalikda harakat qilmoq" ma'nosini anglatadi.

Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi-o'qituvchi, o'quvchi-o'quvchi (sub'yekt-sub'yekt) suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi – o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda biron-bir narsa ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zaro fikr almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. [2.224.]

Darvoqe, boshlang'ich ta'limda kichik guruhlar bilan ishlash interfaol usullarni qo'llash uchun juda qo'l keladi. Ayniqsa, "Aqliy hujum" metodidan biron-bir muammoni yechish jarayonida g'oyalarni tanlashda, turli variantlarni qidirishda, o'quvchilar bilimni boyitish va mustahkamlashda foydalaniladi. Shuningdek, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan olib borilayotgan mashg'ulotlarda "Tarmoqlar" usuli, "BBB" jadvali, "Debat"lar, testlardan, og'zaki savol-javoblar, ba'zan didaktik o'yinlardan foydalanish bolalar o'rtasida faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Masalan, 3-sinf "O'qish kitobi" darsligidagi "Ulug'lardan o'rganmoq – oqillik" nomli bo'limida M.Osimning "Jaloliddin Manguberdi" hikoyasi keltirilgan. Shu hikoyani o'rfatish darsida suhbat, tushuntirish, mustaqil ish, kichik guruhlar bilan ishlash kabi usullardan foydalanish mumkin. Lug'at ustida ishlash ham darsning tarkibiy qismini tashkil etadi. Buning uchun o'qituvchi hikoyadagi tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarni oldindan yozuv taxtasiga yozib qo'ygan bo'ladi:

To'g'on - suvni to'sib turadigan qurilma.

O'lja - dushman ustidan g'alaba qilganda qo'lga kiritiladigan narsalar.

Nizo - urush, janjal.


Bandi - tutqin, asir.



Sodiq - sadoqatli, chin, haqiqiy.

O'quvchilar ushbu so'zlarni lug'at daftariga yozib olib, yod oladilar. Bundan tashqari, darsda, "Tarixiy xotira" tuzish usulidan foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilar asarda keltirilgan quyidagi joy nomlari va qahramonlarni yaxshi eslab qolish imkoniyatiga ega bo'ladilar:

Urganch, Jaloliddin, mo'g'illar, Afg'oniston, Panjsher, Hind daryosi, Xorazmshoh



Hikoyani o'quvchilar qay darajada o'zlashtirganliklarini suhbat, savol-javob asosida aniqlash mumkin. Jumladan, o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojat qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi: [3]

- Jaloliddin kim bo'lgan?
- Chingizxon haqida nimalarni bilasiz?
- Jaloliddin mo'g'illarga qarshi qanday kurashdi?
- Jaloliddinning lashkarlari o'rtasida nima uchun nizo chiqdi?
- Jaloliddin nima uchun o'z yaqinlarini daryoga cho'ktirib yubordi?
- Chingizxonning Jaloliddinga qoyil qolish sababini izohlab bering.
- Hikoyadagi qaysi voqeadan ta'sirlandingiz?
- Qaysi qahramon sizga ma'qul bo'ldi va nima uchun?

Kichik guruhlar bilan ishlash jarayonida ularga quyidagicha topshiriqlar berish mumkin:

1-guruhga topshiriq: Darslikdagi birinchi rasmni kuzating. Unda hikoyadagi qaysi voqea aks ettirilganligini so'zlab berishga tayyorlaning.

2-guruhga topshiriq: Darslikdagi ikkinchi rasmda nima ifodalanganini kuzating va hikoya qilib berishga tayyorlaning.

3-guruhga topshiriq: Asardagi joy nomlarini sanang va izohlang.

4-guruhga topshiriq: Chingizxon va Jaloliddin Manguberdi timsollariga tavsif bering.

Bulardan tashqari, dars jarayonida reja tuzishni o'rgatish, reja asosida hikoya qilish ko'nikmasini shakllantirish, "So'z o'yini" dan foydalanib, o'quvchilarni topqirlikka, hozirjavoblikka odatlantirish mumkin. Dars yakunida uyga vazifa sifatida "Jaloliddinning jasorati" mavzusida kichik insho yozdirilishi o'quvchilarning yozma nutqini o'stirishga yordam beradi. Bunday mavzudagi hikoyalar o'quvchilarda vatanga bo'lgan sadoqatni, vatanni ardoqlash, unga tegishli har bir narsani muqaddas bilish, o'zini uning kelajagining yaratuvchisi deb his qilish tuyg'ularini ham tarbiyalaydi.



Boshlang‘ich sinflarda nafaqat“O‘qish” darslarida,balki matematika darslarida ham interfaol usullarni qo‘llab,xalq ertaklaridan foydalanilsa, o‘quvchilarning qiziqishlari oshadi,mushohada qilishlari shakllanadi.

Birinchi sinfda nol (“0”)sonini o‘rgangandan so‘ng nol haqidagi ertakni o‘qish yoki kichik sahna ko‘rinishi namoyish etish maqsadga muvofiqdir.Ertak matni quyidagicha:

Uzoq qadim zamonda,tog‘lar va dengiz tomonda Raqamlar mamlakati bo‘lgan ekan.Unda juda halol va pok sonlar yashagan ekan. Faqat nol boshqalardan ishyoqmas va dangasaligi bilan farq qilar ekan.Kunlardan bir kuni ular uzoq sharqda Arifmetika shohi borligini bilib qolishibdi.Shoh o‘z xizmatiga barcha raqamlarni taklif etibdi.Raqamlar mamlakati bilan Arifmetika shohi davlati orasida juda katta sahro bor ekan.Bu sahroda esa 4 ta katta daryo bo‘lgan ekan. Daryolarning nomi “Qo‘shish”, “Ayirish”,Ko‘paytirish” va “Bo‘lish” ekan. Raqamlar qanday qilib Arifmetika shohi mamalakatiga borishni maslahatlashibdi. Ular hammalari birgalikda borishga qaror qilishibdi.Chunki birgalikda ish qilinsa,har qahday qiyinchiliklarni yengish mumkin deyishibdi.Ertalab quyosh o‘zining zarrin nurlarini yerga sochib,yer yuzi yorisha boshlaganda,raqamlar yo‘lga chiqishibdi.Ular yo‘l yurishibdi,yo‘l yurishsa ham ,mo‘l yurishibdi vanihoyat,”Qo‘shish” daryosiga yetib kelishibdi.Barcha raqamlar daryo suvidan ichib, chanqog‘ini bosmoqchi bo‘lishibdi. Ammo “Qo‘shish daryosi suv bermabdi.U suv ichish uchun oldin shartni bajarish lozimligini aytib,shunday buyuribdi.”Juft-juft bo‘lib saflaning va qo‘shiling,shundagina suv ichasizlar”. Barcha raqamlar “Qo‘shish”daryosining iltimosini bajaribdilar.Hatto ishyoqmas va dangasa nol ham.Ammo nol bilan qo‘shilgan juda xafa bo‘libdi,chunki daryo raqamlar soniga qarab suv berar ekan.

Quyosh yana ham qattiq qizdiribdi.Raqamlar zo‘rg‘a “Ayirish” daryosiga yetib kelishibdi.Bu daryo ham chanqagan raqamlarga o‘z shartini :”Kim juft bo‘lib tursa va katta raqamdan kichik raqamni ayirsa,undan chiqqan natijalarning eng kichigiga ko‘p miqdorda suv beramiz’,-debdi.Yana nol bilan juftlashgan raqam juda xafa bo‘libdi va ranjibdi.

Raqamlar Arifmetika shohi mamlakatiga qarab yo‘lni davom ettiribdilar.

”Ko‘paytirish” daryosi ularni o‘zaro ko‘paytirishni iltimos qilibdi.Nol bilan juftlashgan raqam suv olmabdi.Ular zo‘rg‘a”Bo‘lish”daryosiga yetganda ,hech bir raqam nol bilan juftlashishni xohlamabdi.Shundan buyon hech bir raqam nolga bo‘linmas ekan.

Arifmetika shohi o‘z mamalkatida barcha raqamlarni,hatto ishyoqmas va dangasa nolni hamma raqamlar yoniga qo‘shib yozadigan va unda 10 marta kattalashadigan bo‘libdi.Ular Arifmetika shohi mamlakatida to‘q va farovon yashab,murod-maqsadlariga yetishibdi. [4. 201-205-b.]

Dars jarayonida ertakni o‘qituvchiningo‘zi o‘qib,ovoz tovlanishlariga rioya qilgan holda,ma’lum bir joyigacha o‘qib,shu yerda o‘qishni tugatib,o‘quvchilarga quyidagicha savollar bilan murojaat qilishi mumkin:

1. Ertakni kim davom ettiradi?
2. Ertakdagi qaysi qahramonlar sizga yoqib qoldi?
3. Nol raqamining faoliyatini siz qanday baholaysiz?

Ertakni rollarga bo‘lib, kichik sahna ko‘rinishi tayyorlansa, endigina maktab ostonasiga qadam qo‘ygan o‘quvchilarning o‘qish va matematika fanlariga bo‘lgan qiziqishlari yanada oshadi.

Milliy o‘quv dasturi bo‘yicha yaratilgan yangi 3-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligidan biz 3-chorak uchun nashr qilingan qismidan “Porloq yulduz” (Tamila Qosimova) hikoyasi asosida yangi interfaol metodni qo‘llab tadqiqot olib bordik. Ushbu metodni nomi “Uch bo‘g‘inli so‘z” deb nomlanadi. Bu metodni quyidagicha tashkil qilishimiz mumkin: metod o‘z nomidan ham anglashilib turibdi va ushbu metodga nomiga mos holda yondashamiz. Ya’ni o‘quvchilarni uchta guruhga bo‘lamiz va bitta ko‘ngilli talabgorni ular orasidan tanlab olamiz. Bu o‘quvchining vazifasi shundan iboratki: u o‘quvchilar aytgan uch bo‘g‘inli so‘zni topa olishi kerak. Bu o‘quvchimiz albatta o‘quvchilar so‘zni tanlaguncha tashqariga chiqib ularni kutib turadi. Shartning eng qiyinchilik tug‘diradigan tomoni shundaki: o‘quvchilarni biz dastlab uch guruhga bo‘lganimiz bo‘yicha, ularga yangi mavzu yuzasidan bitta uch bo‘g‘inli so‘zni tanlatib, bu bo‘g‘inlarni uch guruhga turlicha taqsimlaymiz. Shundagina ular baravar bo‘g‘inlarni aytsa, bu so‘zni topish ancha qiyin bo‘ladi va faqat e’tibor bilan eshitsa bo‘g‘inni anglab yetib topa olishi mumkin. Masalan, amaldagi 3-sinf 3-chorak uchun “O‘qish savodxonligi” darsligidagi “Porloq yulduz” hikoyasidan yangi so‘zlardan biror so‘zni tanlab olamiz.[5.29-bet]

Usturlob –yulduzlarning osmonda joylashish o‘rnini aniqlovchi asbob. Ushbu so‘zni tanlab oldik.Birinchi guruhga “–lob“ bo‘g‘inini , ikkinchi guruhga “-us ” bo‘ginini va so‘ngi guruhga “-tur ”bo‘g‘inini beramiz. Ularga tashqaridagi o‘quvchini chaqirganimizdan so‘ng, men “Boshladik” deganimda hammangiz baravariga aytasiz deb tushuntiramiz. Dastlab, o‘quvchimizga uch imkoniyat beramiz, unda ham topolmasa o‘zimiz aytamiz va u o‘quvchiga rag‘bat bermaymiz va darsda e’tiborli o‘tirishiga undaymiz. Bu metodni qo‘llashning ahamiyati shundaki:

- Bir xillikdan qochishga yordam beradi;
- Zerikarli darsni oldini oladi;
- O‘quvchilarni hushyorlikka chaqiradi va ular darsni jon qulog‘i bilan eshitib o‘tiradigan bo‘lishadi;



- Darsdagi shovqin qilib darsga xalaqit beradigan o‘quvchini ham qiziqtirib, uni ham darsda ishtirok etishini ta’minlaydi;
- Dars samaradorligini oshiradi.

Bu metod nafaqat oddiy mavzuni mustahkamlovchi metod sifatida o‘tkazilmasdan, balki enerjayer vazifasini ham o‘taydi. O‘quvchilarning kayfiyati ko‘tariladi, o‘ziga ishonchi ortadi va muhimi darsdagi yangi so‘zlarni tezda eslab qolishga harakat qiladi. Shuningdek ushbu metodni barcha fanlarda birdek qo‘llay olsak bo‘ladi, albatta, mavzu yuzasidan kelib chiqqan holda. Bu metodni ustunlik jihatlaridan yana biri shuki: agarda fan dars jadvalida oxirgi o‘rinlardan birida yoki jismoniy tarbiya fanidan so‘ng qo‘yilsa, albatta o‘quvchilar diqqati biroz chalg‘igan va buni tortish ancha qiyin jarayon hisoblanadi. Shunday paytda ushbu metodni qo‘llash sizga katta yordam beradi. Siz o‘quvchilaringizni bir deganda darsga etiborini jalb qilolasiz, hamda ularni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada jadallashishiga imkon yaratasisiz. Shundan kelib chiqib aytish joizki: boshlang‘ich sinflarda qaysi fanni o‘qitishdan qat’iy nazar, zamonaviy darslarni tashkil qilishda turli metod va interfaol usullarning o‘rni beqiyos bo‘lib, bularo‘z navbatida kelajak bunyodkorlarini, Yangi O‘zbekiston yoshlarini, dunyoning rivojlangan davlatlari yoshlari bilan raqobatlasha oladigan buyuk yurt farzandlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Istiqbolli loyihalar xalqimiz farovonligiga xizmat qilmoqda. “Xalq so‘zi”. 2018-yil 8 dekabr №253
2. Atajonova A., Jumaniyozova N. Boshlang‘ich sinf ona tili daraslarida so‘z va uning ma’nolari ustida ishlashda interfaol metodlarning ahamiyati. O‘zMU xabarлари, 2024, [1/1] Filologiya. <http://journals.nuu.uz. Social sciences.224-227-betlar>.
3. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. T., “O‘qituvchi”, 2019. B - 111- 112.
4. Xurramova S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ertaklar asosida matematik tushunchalarni shakllantirish. Central Asian journal of education and innovation 2023, 22-June . 201-205-betlar.
5. Toirova M. “O‘qish savodxonligi” Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 1-qism. / - Toshkent . “Novda Edutainment”, 2023, 29-31-betlar.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarning o‘qish va matematika darslarini tashkil etish yo‘llari va darslar jarayonida fanlararo integratsiyani hosil qilib, zamonaviy darslar tashkil etish usullari haqida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются способы организации уроков чтения и математики в начальной школе и как организовать современные уроки путем создания межпредметной интеграции в классе.

SUMMARY

This article discusses ways to organize reading and math lessons in elementary school and how to organize modern lessons by creating cross-curricular integration in the classroom.